

ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA RISKLARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINING ZAMONAVIY USULLARI

Muxitdinov Shuxrat Ziyavitdinovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
“Iqtisodiyot” kafedrası professori
muxitdinov85@list.ru
+998913452050

Annotatsiya: Mazkur maqolada ishlab chiqarish korxonasi faoliyatiga ta'sir etuvchi risklar va ular tufayli kelib chiqishi mumkin bo'lgan moddiy va moliyaviy zararlarni oldini olishda ishlab chiqarish korxonasini boshqarish samaradorligini oshirishning metodologiyasining zamonaviy usullarining nazariy-uslubiy asoslariga bag'ishlangan. Shuningdek maqolada ishlab chiqarish korxonasi faoliyatiga ehtimoliy ta'sir etuvchi risklarni boshqarishni axborotlashtirish, xavflarning mavjudligini aniqlashga imkon beradigan usullar guruhi va analitik usullarni qo'llash ahamiyati ochib berilgan.
Kalit so'zlar: korxonalar, risk, ERM (Enterprise risk management), riskni boshqarish

I.KIRISH

Jahon iqtisodiyotining global taraqqiyoti va iqtisodiyotning ijtimoiy maqsadlarga muvofiqlik darajasining ortib borishi sharoitida bir tomondan ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish imkoniyatlarining kengligi, ikkinchi tomondan esa real daromad olishning mustahkam manbai va ijtimoiy talablarga har jihatdan javob beruvchi sub'ekt sifatida ahamiyati ortib bormoqda. Dunyoning ikkinchi iqtisodiyoti hisoblangan sanoat ishlab chiqarish korxonalarining YaIM ulushi Xitoyda 41%, Rossiyada 33%, Koreyada 36%, Turkiyada esa 38% ni tashkil qiladi [1]. Bugungi kunda Xitoy to'qimachilik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda yetakchi o'rinni egallab, umumiy ishlab chiqarishning 21% ni tashkil etadi, Turkiya to'qimachilik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda dunyoda Xitoydan keyingi o'rinni egallab umumiy ishlab chiqarishning 15% ni to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etadi [2]. Moliya bozorining beqarorligi, soliq yukining yuqoriligi, siyosiy-ijtimoiy vaziyat, iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi past darajadali va bozor iqtisodiyotining boshqa hodisalari barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday sharoitda tashkilot uchun strategik chora-tadbirlarni ko'rish, ayniqsa risklarni boshqarish tizimini shakllantirish dolzarb hisoblanadi.

II.ADABIYOTLAR SHARHI

Dunyo olimlarining ishlab chiqarish korxonasi faoliyatiga ta'sir quluvchi ayniqsa noaniq sharoitlarda ta'sir qiluvchi risk xodisalari tufayli etadigan zararlarni turkumi, zararlarni qoplash riskdan qochish, riskni saqlash va uni tarqalishini oldini olish va korxonani diversifikatsilashning metodologiyasining nazariy asoslari bo'yicha V.I.Gorfinkel tadqiqorlar olib borgan [3]. S.N.Smironov korxonaga faoliyatiga ta'sir etuvchi turli xil risklarni boshqarish strategiyasi qo'llashning metodologik yondashuvlarini ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etgan [4]. Olimlardan D.X.Xudaynazarova global iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida korxonalarining barqarorligini ta'minlashda risklarni boshqarish strategiyalari va xorij tajribalari o'rgan [5]. Xaqiqatda xorij tajribasidan kelib chiqib mamlakatimiz korxonalar faoliyati

barqarorligini ta'minlashda risklarni boshqarishning takomillashgan metodologiyasini ishlab chiqish mumkin. korxonalar risklarini boshqarish metodologiyasi bo'yicha yevropalik olimlarning tadqiqotlari mavjud.


Masalan, britaniyalik olim Robert S. Kaplan va amerikalik olim David P. Nortonning "The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action" (Muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi: Strategiyani amaliyotga tatbiq etish) nomli asarida korxonalarda strategik boshqaruv va risklarni boshqarishning yangi yondashuvlari taqdim etilgan. Mualliflar korxonalar faoliyatini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, mijozlar, ichki jarayonlar va o'sish imkoniyatlari kabi boshqa omillarni ham inobatga olishni taklif qiladilar [6]. Biroq tadqiqotlarda korxonalar risklarini boshqarish (ERM), risklarni mavjudligini aniqlashga imkon beruvchi usullarni tadqiq etish, ishlab chiqarish korxonalarini risklarga chidamlilik darajasini aniqlashning identifikatsiya tizimi bo'yicha tadqiqotlar ko'lamini past shu nuqtai nazaridan ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarishning zamonaviy metodologiya portfelini yaratish dolzarb hisoblanadi.

III. NATIJA

Korxonalar o'zlarini moliyaviy yo'qotishlardan himoya qilishga intilishadi, ammo tashqi muhit ta'siri tufayli kelib chiqadigan risklarni aniqlash va ularni bartaraf etish muammosi juda dolzarbdir. Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarish usullari mavjud, menejment ularni amalga qo'llash jarayonini to'g'ri tashkil etishi, ular uchun boshqaruv tizimini yaratish, monitoring, tuzilma, xavflarni aniqlash usuliga mos keladiganlarni tanlashi kerak. Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarish mexanizmini ishlab chiqish umumiy xususiyatlar, boshqaruv shakli, faoliyat turi, faoliyat xususiyatlari va boshqalarni hisobga olish lozim.

Risklarni boshqarish - bu yetkazilgan zararni kamaytirishga qaratilgan jarayonlarni boshqarish, maksimal foyda va minimal yo'qotishlar o'rtasidagi muvozanatni topishdan iborat[7].

Ishlab chiqarish korxonalarining boshqaruvchilari risklarni boshqarish, risklarni umumiy ta'sirni oldini olishga nazariy yondashish va bunga qarshi choralarini ko'rishni asosli deb ta'kidlashni qiyin hisoblashadi. Chunki nazariy jihatdan risklarni boshqarish usullar turli ta'riflar yoki mexanizmlar mavjud. Risklarning boshqarishning zamonaviy uslubiyoti ko'plab elementlari mavjud. Eng samarali usuli bu ERM (Enterprise risk management-korxonalar risklarini boshqarish). ERM bu -maxsus platforma yoki boshqaruv usullarga yondashgan holda risklarni boshqarishni ta'minlaydi. Tizim boshqaruvning bir nechta tarkibiy qismlari korxonani xatarlardan himoya qilish, ishlab chiqarish va qiymat yaratishda risklar to'g'risida qisqacha ma'lumot taqdim etadi (1-rasm).



1-rasm. Risklarni boshqarishni axborotlash¹³

Boshqaruvni axborotlashtirish orqali risklarni boshqarish mexanizmlari takomillashtirish tizimi yo'lga qo'yish muhim ahamiyatli hisoblanadi. Bundan tashqari, risk xavfning kattaligi, xavfning yuzaga kelish ehtimoli ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi xatarlarga yoki ta'sir etuvchi ichki-tashqi risk omillarga bog'liq bo'ladi (1-2-jadvallar).

1-jadval

Xavflarning mavjudligini aniqlashga imkon beradigan usullar guruhi¹⁴

Usul nomi	Ta'rifi
Bajarilish ehtimolini baholash	qarorni bajarish ehtimolini statistik baholash asosida xavf paydo bo'lishining taxminiy parametrlarini shakllantirishga imkon beradi
Moliyaviy oqimlarining ehtimollik taqsimotini tahlil qilish	moliyaviy oqimlar narxining kutilganidan mumkin bo'lgan og'ishlarini taxmin qilish imkonini beradi. Eng kam o'zgaruvchan oqim kamroq xavfli hisoblanadi
Qaror qabul qilish usullari	moliyaviy oqimlar narxining kutilganda mumkin bo'lgan og'ishlarini baholay oladi
Simulyatsion modellashtirish	dasturiy ta'minot tizimlarini yaratish orqali modellarni yaratish, tajriba o'tkazish va xatarlarni boshqarish imkonini beradi.

2-jadval

Analitik usul turlari¹⁵

Usul nomi	Ta'rifi
Ta'sirchanlikni tahlil qilish	rentabellik darajasi yoki sof foyda kabi ko'rsatkichlardan foydalangan holda dastlabki parametrlarini aniqlash.

¹³ Muallif ishlanmasi

¹⁴ Muallif ishlanmasi

¹⁵ Muallif ishlanmasi


Ekspert baholash usuli	ekspertga xavflarni intuitiv ravishda aniqlashga yordam beradigan matematik va mantiqiy protseduralardan, ma'lumotlar bazalaridan foydalanishdan iborat
Reytingni baholash usuli	ekspert tanlangan tizim uchun xavflarni aniqlashi, ularni tartiblashi kerak. Usulning yakuniy bosqichi reyting jadvalini tuzishga qaratilgan
Risk manbalarining nazorat ro'yxatlaridan foydalanish usuli	u ilgari amalga oshirilgan shunga o'xshash loyihalar to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan, yo'qotishlar va ularga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi
"Tanaffus nuqtasi" usuli	bu savdo daromadi xarajatlarga to'g'ri keladigan "zararsizlik nuqtasini" aniqlashdan iborat

Jadvalda keltirilgan yondashuvdan bilish mumkinki, agar ishlab chiqarish korxonalarini mumkin bo'lgan yo'qotishlarning faqat bir qismini bartaraf etsa, natijada ular qisman zararni qoplash bilan birga yangi imkoniyatlarni paydo etishga qolir bo'lishi mumkin.

Ya'ni bank kredit bo'yicha qarzdorlik mavjud deylik, bu albatta qisman risk tufayli qandaydir pul mablag'ini yo'qotishga olib kelishi mumkin. Agar kredit bank qarzdorlikni muddatidan avval to'lansa, qolgan oy uchun to'lanadigan foiz stavkasidan yutish imkonini beradi va bank kredit qarzdorlikni o'rniga subsidiya, subvensiyadan foydalanish mumkin.

Bu risklarni boshqarishning adaptiv usuli qo'llanilishini anglatadi. Ushbu yondashuv korxonaning risklarni boshqarish tizimini vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqishdan iborat bo'ladi.

Riskka chidamlilik darajasini aniqlash uslubiyoti 2-rasmda keltirilgan (IchR-2) risk shkalasi bo'yicha aniqlanadi. Bu "yuqori xavf yo'qotish" dan "yuqori imkoniyat" gacha bo'lgan risk darajasining tavsifini belgilaydi. Ushbu metodologik tahlilni amalga oshirish va ishlab chiqarish korxonasida risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish imkonini beradi.



2 -rasm. Ishlab chiqarish korxonalarini risklarga chidamlilik darajasini aniqlashning identifikatsiya tizimi¹⁶

Ushbu rasmda keltirilgan model ishlab chiqarish korxonalarini risklarga chidamlilik darajasini ta'minlash imkonini beradi. Modelning asosiy vazifasi boshqaruv jarayonida risklarni identifikatsiyalash orqali korxonada faoliyatini risklarga chidamlilik darajasini oshirish va xavf-xatarlarni oldini olishda samarali boshqaruvni joriy etish kerakligi ko'rsatadi.

Samarali boshqaruv tizimini joriy etishda ayniqsa noaniqlik sharoitida risk ta'sirlarga qarshi choralar ko'rish ushbu modelning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Shuningdek yuqorida keltirilgan modellar asosida ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatiga ta'sir etuvchi risklarning ahamiyatlilik darajasini ekspert baholash tizimi orqali belgilashning maqsadga muvofiqligi ko'rsatada (2.5-jadval).

¹⁶ Muallif ishlanmasi

2.5-jadval

Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarishning baholash darajasi ekspert baholanishi¹⁷

Risk darajalarini ranglarga ajratilishi	Risk darajasining nomi	Ekspert baholash	Boshqaruvning riskka ta'sir ko'rsatish darajasi
	Yuqori darajali risk	0-30	Boshqaruv malaka ko'nikmalari past daraja, noaniqlik sharoitlarni hisobga olmaslik, risklarga qarshi strategik choralar ko'rilmalik oqibati
	O'rtacha darajali risk	31-60	Boshqaruv darajasi me'yorda bo'lishi, noaniqlik sharoitlarga maslashish darajasi o'rta me'yorda, strategik choralar qo'llashga axamiyatsizlik
	Past darajasi risk	61-100	Boshqaruv darajasi yuqori, noaniqlik sharoitlarni hisobga olish orqali strategik choralarni ko'rishni doimo nazoratga olish

Ushbu jadvalda ko'rib turganingizdek, risklarni avvalo darajalarga ajratib olish kerak demak “yuqori darajali risk 0-30”gacha, “o'rta darajali risk 31-60”gacha va “past darajali risk 61-100” gacha bo'ladi. Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarish mexanizmlari takomillashtirish yuqorida keltirilgan darajalarga qarab boshqaruv samaradorligi oshirish kerak bunda eng asosiy qoida boshqaruvni samaradorligi qaror qabul qilishga va qolaversa noaniqlik sharoitida riskka qarshi strategik choralarni ko'rishni talab etadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish samara boshqaruv tizimlarini joriy etish va noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish hamda strategik choralarni ko'rish birinchi darajali jarayon hisoblanadi. Buning o'zi risklarni samarali boshqarishni ta'minlash imkonini beradi bundan tashqari ishlab chiqarish korxonalarida risk tufaliy keltirish mumkin bo'lgan xatarlarga qo'shimcha e'tiborga olinishi kerak bo'lgan omillar: valyuta kursi, narxlar, raqobat, eskirgan texnologiya, innovatsion jarayon, innovatsion mahsulot, tovarning brendlilik darajasi.

IV.HULOSA

Xulosa qilib aytganda ushbu maqolada tadqiq etilgan masalaning asosiy mazmun mohiyati ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarishning zamonaviy usullardan biri bo'lgan strategik boshqaruvni joriy qilishda risklarni boshqarish profilaktikasi, ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarish darajasini aniqlash indentifikatsiya tizimi va risklari boshqarishni baholash tizimlari joriy qilishga bag'ishlangan. Ushbu tadqiq etilgan zamonaviy usullar ishlab chiqarish korxonalarida

¹⁷ Muallif ishlanmasi

riskka qarshi samarali choralarni ko‘rish ayniqsa boshqaruv samaradorligini oshirishga etibor qaratilishi korxonaning kelgusidagi moliyaviy qudratini oshirishga, mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bozorda munosib o‘rin egallash, mahsulotni eksportga yo‘naltirishga keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ishlab chiqarish korxonasining riskka chidamlilik darajasi moliyaviy barqarorlik, boshqaruv sifati, texnologik daraja va xodimlarning malakasiga ham bogliq, Umuman olganda metodologik asoslar va baholash usuli ishlab chiqarish korxonalarida risklari boshqarishning yangi imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu albatta riskka qarshi samarali choralar ko‘rish yoki risk tufayli yangi imkoniyatlarni kashf etishga imkon beradi.

V. ADABIYOTLAR

1. Горфинкель В. И. Предпринимательские риски: сущность, динамика, методы управления. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. — 54 с.
2. Смирнов С. Н. Управление рисками в предпринимательской деятельности. — М.: Финансы и статистика, 2001.
3. Худайназарова Д. Х. Корxonalarда risklarни baholash va taхлил қилишнинг хориж тажрибаси // Иқтисодиёт ва таълим. — 2024. — № 1. — Б. 323–329.
4. Kaplan R. S., Norton D. P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. — Boston: Harvard Business School Press, 1996.
5. Сурова А. К вопросу о совершенствовании методики расчета достаточности капитала банка // Финансы и кредит. — 2003. — № 1 (115). — Б. 26–30.
6. Рейтинг стран мира по объему промышленного производства. — Режим доступа: <https://strategy24.ru/rf/news/rejting-stran-mira-po-obemu-promyshlennogo-proizvodstva>.
7. Научные статьи и публикации. — Режим доступа: <https://articlekz.com/>.